

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'zi shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров.....	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeve Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIKNING DOLZARB MASALALARI



Nodira Shotursunova

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida amalga oshirayotgan huquqiy, iqtisodiy islohotlari, Jahon Savdo Tashkilotining maqsad va vazifalari, unga a'zo bo'lish shartlari, tashkilotga a'zolik istiqbollari va e'tibor qaratish zarur bo'lgan boshqa jihatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, taraqqiyot strategiyasi, soliq tushumlari, bojxona to'lovlari, intellektual mulk, daromad, eksport, import, sanoat, qishloq xo'jaligi.

Аннотация: В статье будут рассмотрены правовые, экономические реформы, проводимые новым Узбекистаном в процессе членства в Всемирная торговая организации, цели и задачи Всемирной торговой организации, условия членства в ней, перспективы членства в организации и другие аспекты, на которые необходимо обратит внимание.

Ключевые слова: Всемирной торговой организация, стратегия развития, налоговые поступления, таможенные платежи, интеллектуальная собственность, доходы, экспорт, импорт, промышленность, сельское хозяйство.

Abstract: The article will consider the legal and economic reforms carried out by the new Uzbekistan in the process of membership in the World Trade Organization, the goals and objectives of the World Trade Organization, the conditions of membership in it, the prospects of membership in the organization and other aspects that need to be paid attention to.

Key words: World Trade Organization, development strategy, tax revenues, customs payments, intellectual property, income, export, import, industry, agriculture.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan 100 ta ustuvor maqsaddan biri Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishdan (97-maqsad) iborat¹. Mazkur maqsadga erishish uchun Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish, texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni JST bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish, JSTga a'zo bo'lishning milliy iqtisodiyotga, shuningdek, metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta'sirini o'rganish, ichki bozorni notarif choralari orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi vazifalar qayd qilingan. Muhim jihati, taraqqiyot strategiyasida qat'iy belgilangan maqsad va vazifalar qog'ozda qolib ketmasdan real voqelikka aylanishi uchun Prezident Sh. Mirziyoyev boshchiligidagi huquqiy asoslar yaratilib, izchil iqtisodiy-ijtimoiy choralari ko'rib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik O'zbekistonga nima beradi?" degan o'rinli savolga javob izlagan professor B. Omonov JSTning imkoniyatlari bilan bir qatorda mahalliy fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun ayrim muammoli jihatlari mavjudligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, respublika ichkarisida zamon talabiga mos bozorbop mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xususan, paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o'zbek fermerlari arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi Xitoy, Hindiston, BAA savdo shirkatlariga raqobat qila olmasligi xavfi tug'iladi. Oqibatda qishloq xo'jaligi daromadsiz sohaga aylanib qolishi, bu esa 49,5 foizi qishloqlarda yashaydigan aholi uchun yangi infratuzilmani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Qishloqqa sanoat tarmoqlari

1 <https://lex.uz/docs/5841063>



kirib kelishi G'arb mamlakatlarida bo'lganidek, fuqaroning tafakkur dunyosi jiddiy o'zgarishiga va ijtimoiy faolligiga olib keladi².

Shu o'rinda JST imkoniyatlaridan to'liq foydalanayotgan davlatlardan biri sifatida Xitoy tajribasini tavsiya etish mumkin. Xitoyda XX asr ikkinchi yarmidagi amalga oshirilgan islohotlar davrida ikkita tadbir o'tkazildiki, ular mamlakat qishloq joylaridagi aholi bandligi katta ta'sir o'tkazdi. Birinchidan, dehqonlarga kasbni tanlash va xo'jalik yuritishda mustaqillik berildi. Ikkinchidan, dehqonlarga shaharda tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga imkon yaratildi. Natijada, birinchi tadbir 125 mln. kishining qishloq joylardagi korxonalarga ishga joylashishini ta'minladi. Ikkinchisi taxminan 60–80 million dehqonlarning qishloq joylaridan shaharga ko'chishiga olib keldi. Islohotlarning 23 yillik (1978–2001-yy.) davrida qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushi umumiy bandlar sonida 70,5 % dan 50 % ga tushdi³.

Dotsent T. Pardayev mamlakatimiz JSTga a'zo bo'lishining istiqbollari haqida fikr yuritar ekan bir qator qulaylik va afzalliklarga e'tibor qaratadi⁴. Jumladan, tashkilotning barcha a'zo mamlakatlari bozorlariga kirish uchun teng huquqli imkoniyat paydo bo'lishi, investitsiya barqarorligi ta'minlanishi, raqobat muhiti yaxshilanishi va monopoliyaning oldi olinishiga erishilishi, inflyatsiya darajasi kamayishi, eksportyorlarning tashqi savdoda huquqi himoya qilinishi, jahon miqyosidagi savdo siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqi berilishi, ya'ni tashkilot yig'ilishida ishtirok etadigan har bir davlat o'z ovozigacha ega bo'lishi kabi afzalliklarni qayd qilib o'tadi.

Rossiyalik tadqiqotchi I. Busoedovning fikriga ko'ra⁵ xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning ahamiyati shundaki, ular ushbu munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan mamlakatning milliy iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlardan ajralib chiqish har qanday mamlakatga zararli ta'sir ko'rsatadi, sog'lom iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Jahon savdo aloqalari ularda ishtirok etayotgan mamlakatlarni xalqaro mehnat va ishlab chiqarish taqsimoti bilan birlashtiradi, ishlab chiqarishning o'ziga xos usullari yoki hududiy xususiyatlari tufayli ma'lum bir hududga bog'langan ma'lum resurslar, tovarlar va xizmatlar yordamida ularni bir-biriga bog'lab qo'yadi. Natijada, tovar ayirboshlash barcha tomonlar uchun foydali bo'ladi va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy muvozanat saqlanadi.

METODOLOGIYASI

Fikrimiz tasdig'i sifatida joriy yilning 2-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi⁶ PQ–181-son qarori qabul qilinganini alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu Hujjat mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish borasidagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga asos bo'ladi. Xususan, qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon Savdo Tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatining natijadorligini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, JSTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni o'tkazishga puxta va har tomonlama tayyorgarlik ko'rish hamda ularning samarali o'tkazilishini ta'minlash, JSTga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston Respublikasi pozitsiyasini yetkazish maqsadida JST Kotibiyati va a'zo davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy vakillari bilan doimiy ishchi aloqalarni o'rnatish, JSTga a'zo bo'lish jarayonida donorlarning texnik ko'magi va ular tomonidan ajratiladigan grant mablag'laridan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi vazifalar yuklandi.

Shuningdek, Adliya vazirligiga qo'shimcha 5 ta shtat birligini ajratgan holda milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish funksiyasini yuklash, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparati tuzilmasida JST bilan ishlash va savdo muzokaralari departamenti, aksar vazirlik va idoralar markaziy apparati tuzilmasida JST masalalari bo'yicha bo'linmalar, O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonasida JST masalalari bo'yicha birinchi kotib lavozimi joriy etildi. Bu islohotlar tez orada kutilgan samaralar berishi shubhasiz.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: xo'sh JST qanday tashkilot va unga a'zo bo'lish O'zbekistonga qanday naf keltiradi? Zotan har qanday xalqaro birlashmaga integratsiya bo'lish mamlakat mustaqilligini cheklashi mumkin degan qarashlar ham mavjud.

Ma'lumki, JST (ingl. WTO – World Trade Organization) – mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri jahon bozorida muvaffaqiyatli

2 <https://xs.uz/uzkr/post/zhahon-savdo-tashkilotiga-azolik-ozbekistonga-nima-beradi>

3 Чэн Вэй. Современный Китай: проблема занятости. // Вестник РУДН, серия Международные отношения, 2009, № 3. стр.61–75.

4 <https://customs.uz/uz/news/view/6545>

5 Бусоедов И. А. Роль Всемирной торговой организации в современном мире // Молодой ученый. – 2017. – № 10 (144). – С. 202–204. <https://moluch.ru/archive/144/40286/>

6 <https://lex.uz/docs/6480161>



faoliyat yuritishda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiquvchilar, eksportyor va importyorlarga ko'mak berishdir. Tashkilotni jahon iqtisodiyotini mustahkamlash, butun dunyoda savdoni, investitsiyalarni kengaytirish orqali aholi bandligini va daromadlar o'sishini ta'minlashga hissa qo'shish, mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantirish platformasi deb hisoblash mumkin. Xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta'minlash ham JSTning asosiy funksiyalari qatorida sanaladi.

1995-yildan faoliyatini boshlagan bu tashkilotga ayni vaqtda 164 davlat a'zo hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra jahon tovar aylanmasining 95 foizdan ortig'i tashkilot a'zolari bo'lgan davlat tomonidan amalga oshirilmoqda, jumladan, mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining 97 foizi JST davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

JST o'z maqsadlariga erishish jarayonida a'zo davlatlarda ko'plab muvaffaqiyatli islohotlar amalga oshirildi. Masalan, bojxona to'lovlari keskin qisqartirildi (sanoatlashgan davlatlar 5% dan 3% gacha, Yevropa Ittifoqi 6,8% dan 4,1% gacha, Aqsh 6,6% dan 3,4% gacha). Ba'zi hollarda sanoati rivojlangan mamlakatlarda bojxona to'lovlari butunlay bekor qilindi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi importining 40% dan ortig'i bojsiz qayta ishlanadi.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Ayon bo'lmoqdaki, JSTga a'zolik O'zbekistonga tashkilotga a'zo davlatlar bilan eng qulay rejim bo'yicha, ya'ni pasaytirilgan stavkalar asosida savdo qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga O'zbekistondan ichki bozorni erkinlashtirish talab qilinadi. JST qoidalariga ko'ra chegaralarni ochish, bojlar va to'siqlarni kamaytirish kerak. Shubhasiz, bunday choralar mamlakatga import oqimini oshiradi. Arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib beruvchi xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlasha olmagan milliy korxonalar inqirozga yuz tutishi aniq. Shu sababli, O'zbekiston korxonalari nafaqat narx, balki sifat jihatidan ham chet el korxonalari bilan raqobatlasha oladigan tarzda samaradorlikka erishishlariga to'g'ri keladi.

Har bir davlat uchun JSTga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 10, hatto 15–20 yil talab etadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 19 yillik kutishlardan keyin 2012-yilda, Qirg'iziston 1998-yilda, Tojikiston 2012-yilda, Qozog'iston 2015-yilda a'zolikka qabul qilingan. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lishda shoshilinch ish tutish o'zini oqlamaydi. Masalan, Qirg'iz Respublikasi JSTga 1998-yilda a'zo bo'lgan, lekin ekspertlar tahliliga ko'ra bu a'zolik dastlab kutilgan natijalar olib kelmagan. Chunki, JSTga qisqa muddatda a'zo bo'lish endi rivojlanayotgan davlatlar milliy iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb bo'lmaydi. Shuning uchun Rossiya Federatsiyasi JSTga a'zo bo'lishi uchun 18 yil tayyorgarlik ko'rgan va shu vaqt mobaynida o'z imkoniyatlarini JST talablariga moslashtirib olishga erishgan.

Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun ortga qaytmas jarayondir. Zero Prezident Sh. Mirziyoyev joriy yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishida mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, investorlarga yanada qulay sharoitlar yaratishni yaxlit tizim asosida amalga oshirish, tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarini yanada erkinlashtirish siyosatini jadal davom ettirish, jumladan, dunyodagi ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilish maqsadida Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish zaruratini alohida ta'kidlab o'tdi⁷. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda paxta tolasi eksportidan to'liq voz kechilgandan keyin, tayyor kiyim-kechak eksporti 4 baravar ko'paygani, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard 300 ming dollarni tashkil etgani, 2021-yilda O'zbekiston GSP+ tizimiga qo'shilgani natijasida Yevropa bozoriga tayyor mahsulot eksporti 1,5 baravar oshgani haqida to'xtalib, kelgusi uch yilda tayyor mahsulot eksporti 2 baravar oshirish rejalashtirilgani, bunga erishishning birdan bir yo'li – Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish hamda 164 ta davlat bilan adolatli savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror bozorlarni yaratish ekaniga urg'u berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qator o'tkir iqtisodiy masalalar hal etilishini talab qilishiga qaramasdan har qanday holatda ham JSTga a'zolik O'zbekiston uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi. Ayniqsa, eng avvalo, iste'molchilar manfaatiga xizmat qiladi. Ya'ni savdo to'siqlari kamaysa, import qilinadigan tovarlar narxi pasayadi hamda import resurslari xom ashyo bo'lgan mahalliy mahsulotlar narxi ham arzonlashadi. Tovarlarni va xizmatlarni tanlash imkoniyati ko'payadi. Bu o'z navbatida bozor uchun kurashda mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining sifati ham o'sib borishiga olib keladi. Qolaversa, eksport bilan shug'ullanadigan mahalliy korxonalar uchun xalqaro savdo-maydoniga yo'l ochilishi tadbirkorlar daromadlarini oshiradi. Demakki, soliq tushumlari ortadi va davlat byudjeti o'sib boradi. Ish o'rinlari soni ko'payib, aholi turmush farovonligi ta'minlanadi.

Shuningdek, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi natijasida iqtisodiyotimiz lokomotivlaridan biri sanalagan turizm rivojlanishi, integratsiyalashuv jadallashishi, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati ortishi, davlat monopoliyasining qisqarishi kabi ijobiy jarayonlar kechadi.

7 <https://president.uz/uz/lists/view/6332>



Biz mazkur jarayonlar kutilganidek samara berishi uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

JSTga a'zo bo'lgan qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyotimiz tarmoqlari uchun alohida rejalar ishlab chiqish zarur.

Tashkilotga a'zolikning dastlabki yillarida – o'tish davrida alohida sektorlar uchun farq qiladigan shartlar ishlab chiqish va JST bilan kelishuvga erishish maqsadga muvofiq.

Sug'urta va moliya bozorlari, bank tizimi uchun alohida rejalar ishlab chiqilmasa, kelgusida past foizli kredit liniyalariga ega xorijiy banklar mamlakatimizga kirib kelishi raqobat muhitini kuchaytiradi va milliy banklarimizning qiyin ahvolda qolishi ehtimolini oshiradi.

Hududlarda ishlab chiqilgan loyihalarni xorijiy investorlarga taqdimot qilish uchun har bir viloyatda investitsiya forumlarini muntazam o'tkazib borish va bu jarayonda konsalting kompaniyalari imoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Mahalliy agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish dasturlarini qayta ko'rib chiqish va eksportni rivojlantirish imkonini oshiradigan sohalar va tarmoqlarga ixtisoslashuvni jadallashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чэн Вэй. Современный Китай: проблема занятости. // Вестник РУДН, серия Международные отношения, 2009, № 3. стр.61–75.
2. Бусоедов И. А. Роль Всемирной торговой организации в современном мире // Молодой ученый. – 2017. – № 10 (144). – С. 202–204. <https://moluch.ru/archive/144/40286/>
3. Vahobov A., Malikov T. Moliya: darslik. – T. : Noshir, 2011. – 712 b.
4. Финансы: учебник для бакалавров / Под ред. М. В. Романовского, О. В. Врублевской. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2012. – 590 с.
5. Malikov T., Tilabov N. Moliya: test (savol-javoblar). –T. : Akademnasr, 2013. – 448 b.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.